MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI SHAKILLANTIRISHDA MULTFILM MATNLARINING AHAMIYATI VA PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Buronova Ra'no Abdujabborovna
Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, student
E-mail: r.buronova@dtpi.uz

Received: 01.11.2025
Revised: 02.11.2025
Accepted: 02.11.2025

Kalit so'zlar:
Psixolingvistika, nutqiy aktlar, komunikatsiya, nutqiy ontogeniz, ruhiyat.

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini shakillatirishda multfilmlarning ahamiyati haqida psixolingvistik tadqiqotlar usullari orqali fikr – mulohazalar yuritiladi. Turli ilmiy tadqiqot ishlaridan iqtiboslar keltirib o'tilgan va nutqiy aspektda tahlil qilingan.

Kirish. Psixolingvistikaga doir tadqiqot ishlari XIX, XX asrlardayoq dunyo ilm –fan olamida turli tajriba va sinovlar bilan qarshi olingan soha sifatida rivojlanib o'sib kelmoqda. Psixolingvistiklar o'z tadqiqot ishlarini bir qator davlatlar va turli jamiyatlarda muomoli masalalarni, markazga inson va uning psixologik holatini qo'ygan ishlarni olib chiqishdi. Bunday ishlardan maqsad esa, inson va uni qurshab turgan atrof – muhitdagi voqea - hodisalarni ruh bilan idrok qilgan holda nutq bilan tushuntirish va muomolarga mana shu nutq orqali yeshim topishdan iborat edi.

Keyingi yillarda matn tahlili bo'yicha qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlar faqatgina tilshunoslik emas, til negizida shakillangan turli yangi yo'nalishlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Xususan, psixolingvistika bevosita nutq bilan bog'liq bo'lib, turli vaziyatlardagi nutqiy aktlar orqali insonga ta'sirini yoki xaraktir – xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi sohadir.

Psixolingvistika uchun turli soha vakillari, turli yoshdagi insonlar tekshirish obyekti bo'la oladi. Jumladan, shu kungacha eng ko'p bolalar nutqi, nutqidagi kamchiliklar, atrof- muhit ta'siri, bolalar ongida va nutqida mavjud bo'lgan va bo'lishi kerak bo'lmagan so'zlarning psixolingvistik ta'sirini o'rganilgan.

Kuzatishlar natijasida bolalarning nutqiy o'sishida nafaqat atrofdagi insonlar balki, hikoya qilish asnosida hikoyalar, ertaklar, multifilmlar, aqliy va murakkab o'yinlar alohida ahmiyat kasb etishi olimlar tomonidan ta'kidlab kelinmoqda.

Jumladan, Olga Lozova, Olena Litvynenko[1] ning ilmiy tadqiqot ishlarida eshitish va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga hikoya va qissalarni o'qitish, risoladagidek bo'lgan tengdosh do'stlarining hayotini hikoya qilib berish orqali

[1] Olga Lozova, Olena Litvynenko "Semantic Indicators of Personal Orientation in the Narratives of Adolescents with Deprivation of Verbal Development". "Psycholinguistics journal".Vol 30.No (1).2021. Pg 114-138 https://psycholing-journal.com/index.php/journal/article/view/1211/327

psixolingvistik ta’sir o‘tqazish va nutqini to‘g‘irlash borasida yangi metodlarni ta’kidlab o‘tadi.

Bolalarga ertaklarni hikoya qilib berish asnosida nutqidagi so‘zlar miqdorini boyitib, qayta takrorlatish asnosida esa, nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish mumkin. O‘z navbatida bola tashqi olam bilan komunikatsiyaga kirishadi.

Nutqiy ontogenizining psixolingvistikaga aylanish jarayoni komunnikativ komputetsiya bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Komunikatsiya jarayonida muloqat qilyotgan shaxs va tashqi dunyo bilan o‘zaro ta’sir solishtiriladi[2].

Bolalarda nutqiy ontogeniz asosan, dialog shakilda kechadi ya’ni ularning o‘z ona tilini o‘zlashtirish darajasi nutqiy ya’ni (og‘zaki) shakilda bo‘lib, hikoya dialog shakilda bo‘lganligi uchun uning mana shu jihatinigina rivojlantira oladi. Ya’ni faqat yodlash.

Keyingi bolalar nutqini o‘stiruvchi va eng ko‘p ta’sir qiluvchi jarayon oila a’zolari bilan monologi jarayonida nutqiy aspektning boyib borishi.

Ovozli va harakatli multfilmlar eng keng qamrovli va deyarli barcha bolalarga psixologik va lingvistik ta’sirga ega janrga aylanib ulgurgan.

Bugungi kunda axborot va internet tarmoqlarining chegarasiz va hadsizligi sababli bolalar uchun turli davlatlar va turli studiyo mahsulotlarining istemolchisiga aylanish imkoniyati yuzaga keltirmoqda.

Bu esa, oziq – ovqat, tibbiy xizmat va boshqa mahsulotlarni saralab istemol qilganimiz kabi bolalar uchun multfilmlarni ham saralashimiz va millliy koloretga munosiblarini bolalarimiz uchun taqdim etishimiz kerakligini ko‘rsatadi.

Butun dunyo bolalarining sevimli qahramonlariga aylangan va yillar davomida sevilib ko‘rilyotgan multfilm qahramonlarining nutqiga diqqat bilan e’tibor bersak tarkibida bolalar idrok qila olmaydigan, tushunmaydigan nutqiy birliklar mavjud ekanligini, ba’zan esa, bu birliklar odob doirasidan chetda bo‘lgan so‘zlar ekanligini bilib olamiz.

Xususan, Milliy multfilmlarimizdan “Qimmat va Zumrad”, “Quyosh yurti pahlavoni”, “Oltin tarvuz’’ kabilarning matniy tarkibini ko‘rib chiqamiz.

Uzoq yillardan buyon bolalarning sevimli multfilimiga aylangan “Qimmat va Zumrad’’da ham bolalar anglay olmaydigan birikmalar mavjud.

Masalan: Asar qahramonlaridan biri kampir(Zumradning o‘gay onasi) nutqidan cholga qarata “ Yer yutgur chol”, “ vaqillama”, “Miyyasi aynigan chol” Zumradga qarata esa, “Yashamagur” iboralari ishlatiladi. Bu kabi iboralar mutaxasislar e’tiborini tortishi tabiiy va “Bola ongi bunday birlikarni qabul qila oladimi? Bu kabi iboralarni bola nutqiga singdirsa bo‘ladimi?” Degan savollarni yuzaga keltiradi.

O‘tgan asrning 70 -yillaridan boshlab bolalarning nutqiy faoliyati tekshirishda ularning qobilyati, qiziqishlari bilan o‘zaro bog‘liq holda ish olib borish yuqori samara berishi ta’kidlanadi. Shu asos yuzasidan bolalar ertaklarni aytib berishi,

[2] Nadejda Yureyva “Og‘zaki entiratev, Maktabgacha yoshdagi bolalarning hikoyalari: Gipotezani shakillantirish bo‘yicha og‘zaki entiraktev kom ponent” Psycholinguistics journal.

takrorlashi va tushunishi ularning keyingi davriga ta’sir qilishini hisobga olgan holda bolaning nutq faoliyatida hikoyaning genizisi alohida ahamiyatlidir.

Multfilmlar mana shu ertak va hikoyalar negizida shakillangan filmlar bo‘lib, faqatgina eshitish emas, ko‘rish orqali ham ta’sir o‘tqaza olganligi sababli uning ta’sir kuchi ko‘proqdir.

Bolalar ongi sodda birliklarni qabul qila oladi. Iboralar esa – “ma’nosi bir so‘zga teng bo‘lgan so‘z va so‘zlardan tashkil topgan birlikdir”[3]. Odatda ibora ikki so‘z birikuvidan tashkil topganligi uchun bolaning qabul qilishida qiyinchilikni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi “Yer yutgur” so‘zi qarg‘ish ma’nosida kelib, izohi bunday ahvolda bo‘lganingdan ko‘ra seni yer yutsin ya’ni yerning ichiga kir ma’nolari yotadi.[4]

Til bu dunyodagi bilimlarni shakillantirish va saqlashning eng muhim usuli hisoblanadi.[5]

Til dunyoqarashi – atrof –muhitning nisbatan obyektiv holatini va o‘zaro bog‘langan til birliklarining mozaikaga o‘xshash tuzilmasini aks ettirib beradi. Bolalarda bu jarayon asta – sekinlik bilan shakillanadi. Bola bora – bora atrofdagi axborotlarni ongiga singdirgan holda tovushlar birikuvi murakkab fonetik tizm bilan ifodalangan dunyoqarashni hodisalar, leksik – semantik va gramatik ma’nolar shuningdek stilistik xususiyatlarni shakillantirib, ham konseptual, ham lingvistik dunyoqarashlarni inson olami sifatida va milliy til sifatida shakillantiradi.

Yuqoridagi birliklar esa, bola ruhiyatiga qay darajada ta’sir qilishi so‘roq ostida.

Bola o‘rtoqlari bilan o‘ynar ekan nohaqlik qilgan do‘stiga qarata “ Yer yutgur seni” deydimi yoki jaxli chiqqanida “ Yashamagur” so‘zini ishlatadimi? Bu birliklarni idrok qilishga katta yoshli insonlarning idroki ba’zan yetmaydi. Mana shu yerda jamiyatning har bir jabhasida psixolingvist mutaxasislarga ta’lab borligini ko‘rsatadi.

“Vaqillama” bu ibora odatda baqa yoki qurbaqaning ovoz chiqarish jarayoniga nisbatan ishlatiladi. Ovozning “vaq – vaq’’ shaklida eshitilishi qurbaqa “vaqillayapdi” kontektini lisonimizda shakillantirib qo‘ygan. Bu birlikning insonga nisbatan ishlatilishi esa, uni baqaga tenglashtirish bilan teng degani.

Bola ongi dastlab nimani ko‘rsa uni o‘z holicha qabul qiladi. Kinoya, metofara, ichki ma’no kabi tushunchalarni anglab yetmaydi. Xuddi shunday, aynish hodisasi dastlab faqat yeydigan va ichadigan narsalarga tegishli ekanligini bilgan bola tabiiyki, “Miyyasi aynigan chol’’ iborasi nimani anglatishini bilmaydi. Hali unda miyya so‘zining o‘ziyoq so‘roq ostida turibdi.

Aslida, milliy multfilmlar eng ko‘p darajada ko‘rilishi va unda milliylik sezilib turilishi kerak. Psixologik darajada bu usul bolani milliylik, jamiyatning bir bo‘lagi sifatida o‘zini his qila olishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning

[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologizm.

[4] https://uz.wiktionary.org/wiki/yer

[5] Xolmanova Zulxumor Turdiyevna. Toshkent – 2019. https://tsuull.uz/sites/default/files/kompyuterlingmuvofiknashr19doc.pdf

uchun bolalar uchun mo‘ljallangan multfilm va kinolarga diqqatli va e’ tiborli bo‘lishimiz kerak. Sababi bolalarning uch yoshgacha bo’lgan davri ularning deyarli butun hayotiga ta’sirini ko‘rsatadi,

Mazirka, Irina Olegovna[6] “Og'zaki shaxs xususiyatlarining psixolingvistik asoslari va badiiy qahramonlar dunyosining lingvistik tasviri” nomli dissertatsiyasida badiiy asarning ta’siri va uning inson nutqidagi tajalliylanishi o‘rganadi. Ishda inson bolalikdan qarilik chog‘larigacha o‘qigan va tomosha qilgan asarlari nutqiga va hayotiga ta’sir etish haqida fikrlar yurutiladi. Asar qahramonlari lingvistik tahlil qilinadi. Davr, makro va mikrosotsiatsiyaning shaxsiy kontseptual sohaning yetakchi tarkibiy qismi sifatida xarakteristik urg'u tushunchasining rivojlanishiga ta'siri va badiiy asar qahramoni dunyosining lingvistik tasviri. Kasbning kognitiv – kontseptsiyasidagi o'zgarishlar tufayli badiiy asar qahramoni dunyosining shaxsiy tuzilmalari va lingvistik tasviri tushunchalaridagi o'zgarishlarini o‘rgangan.

Xulosa: Bu kabi tadqiqotlarning o‘ziyoq mashhur brendga aylanib ulgurgan “DISNEY”, “PIXAR” kabi kompaniya mahsulatlarini ham saralash zarur ekanligini, bugungi faol ijtimoiy hayot jarayonida bolalarga filtrdan o‘tgan mahsulotlar istimol qilishini nazorat qilishimiz zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Olga Lozova, Olena Litvynenko “Semantic Indicators of Personal Orientation
in the Narratives of Adolescents with Deprivation of Verbal Development”. “Psycholinguistics journal”.Vol 30.No (1).2021. Pg 114-138 https://psycholing-journal.com/index.php/journal/article/view/1211/327
2. Nadejda Yureyva “Og‘zaki entiratev, Maktabgacha yoshdagi bolalarning hikoyalari: Gipotezani shakillantirish bo‘yicha og‘zaki entiraktev kom ponent” Psycholinguistics journal.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologizm.
4. https://uz.wiktionary.org/wiki/yer
5. Xolmanova Zulxumor Turdiyevna. Toshkent – 2019. https://tsuull.uz/sites/default/files/kompyuterlingmuvofiknashr19doc.pdf
6. Mazirka, Irina Olegovna “ Психолингвистические основы вербальной характеристики личности и языковой картины мира героев художественной литературы” диссертации и автореферата. по ВАК РФ 10.02.19 https://www.dissercat.com/content/psikholingvisticheskie-osnovy-verbalnoi-kharakteristiki-lichnosti-i-yazykovoi-kartiny-mira-g

[6] Mazirka, Irina Olegovna “ Психолингвистические основы вербальной характеристики личности и языковой картины мира героев художественной литературы”диссертации и автореферата. по ВАК РФ 10.02.19 https://www.dissercat.com/content/psikholingvisticheskie-osnovy-verbalnoi-kharakteristiki-lichnosti-i-yazykovoi-kartiny-mira-g